



ICHKI AUDITNI TAKOMILLASHTIRISH: DAVLAT SEKTORIDA XALQARO YONDASHUVLAR

Saitmuratov Saitmurat

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

ORCID: 0009-0008-2048-319X

saitmurat@urdu.uz

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda davlat sektorida ichki audit tizimini rivojlantirishda xalqaro tajribalar o'rganilgan. Xususan, audit faoliyatini xalqaro standartlarga muvofiq tashkil etish, texnologik integratsiyaning roli hamda auditorlarning mustaqilligini kafolatlovchi omillar tahlil qilingan. Malayziya, Janubiy Afrika, Germaniya va boshqa davlatlardagi amaliy tajribalar misolida ichki audit samaradorligini oshirish bo'yicha ko'rilgan choralar va ularning natijalari ko'rsatib berilgan. Shu asosda O'zbekistonda ichki audit tizimini takomillashtirish uchun tegishli tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ushbu ilmiy izlanish davlat boshqaruvida oshkoralik, moliyaviy intizom va resurslardan oqilona foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ichki audit, davlat sektori, xalqaro tajriba, xalqaro standartlar, auditor mustaqilligi, texnologik integratsiya, moliyaviy intizom, oshkoralik, resurslardan samarali foydalanish.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ВНУТРЕННЕГО АУДИТА: МЕЖДУНАРОДНЫЕ ПОДХОДЫ В ГОСУДАРСТВЕННОМ СЕКТОРЕ

Саитмуратов Саитмурат

Ургенчский государственный университет

имени Абу Райхана Беруни

Аннотация. В данном исследовании изучен международный опыт развития системы внутреннего аудита в государственном секторе. В частности, проанализированы организация аудиторской деятельности в соответствии с международными стандартами, роль технологической интеграции, а также факторы, обеспечивающие независимость аудиторов. На примере практического опыта Малайзии, Южной Африки, Германии и других стран показаны меры по повышению эффективности внутреннего аудита и их результаты. На этой основе разработаны соответствующие рекомендации по совершенствованию системы внутреннего аудита в Узбекистане. Данное научное исследование способствует расширению возможностей обеспечения прозрачности государственного управления, укрепления финансовой дисциплины и рационального использования ресурсов.

Ключевые слова: внутренний аудит, государственный сектор, международный опыт, международные стандарты, независимость аудиторов, технологическая интеграция, финансовая дисциплина, прозрачность, эффективное использование ресурсов.

IMPROVING INTERNAL AUDIT: INTERNATIONAL APPROACHES IN THE PUBLIC SECTOR

Saitmurotov Saitmurot

Urgench State University named after Abu Rayhan Beruni

Abstract. *This research examines international experiences in the development of the internal audit system in the public sector. In particular, it analyzes the organization of audit activities in line with international standards, the role of technological integration, and the factors that guarantee auditors' independence. Drawing on the practical experiences of Malaysia, South Africa, Germany, and other countries, the study highlights the measures taken to enhance the effectiveness of internal audit and their outcomes. Based on this, relevant recommendations have been developed to improve the internal audit system in Uzbekistan. This scientific research contributes to expanding opportunities for transparency in public administration, strengthening financial discipline, and ensuring the rational use of resources.*

Keywords: *internal audit, public sector, international experience, international standards, auditor independence, technological integration, financial discipline, transparency, efficient use of resources.*

Kirish.

Ichki audit davlat sektorida samarali moliyaviy boshqaruvni yo'lga qo'yishda strategik ahamiyat kasb etadi. U davlat byudjeti mablag'larining oqilona sarflanishini ta'minlash, byudjet intizomini mustahkamlash hamda qonunchilik talablariga rioya etilishi ustidan doimiy nazoratni amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-fevraldagi

PQ-128-son qarorida moliyaviy nazorat organlari faoliyatini modernizatsiya qilish va davlat byudjeti xarajatlarning samaradorligini oshirish masalalari muhim vazifa sifatida belgilangan. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-avgustdagi 416-son qarori esa ichki audit xizmatlarining aniq funksiyalari, xodimlarga qo'yiladigan malaka talablari hamda xizmat faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini mustahkamlab berdi. Ushbu maqolada xalqaro standartlar asosida ichki audit tizimini rivojlantirish jarayonlari, texnologik yangilanish, kadrlar tayyorgarligi va davlat moliyaviy boshqaruvidagi roli tahlil qilinadi hamda O'zbekistonda mazkur tajribalarni qo'llash imkoniyatlari o'rganiladi.

Adabiyotlar sharhi.

Ichki audit davlat sektorida samaradorlik va boshqaruvni yaxshilash uchun muhim vosita hisoblanadi. Xalqaro tadqiqotlar ichki auditning rivojlanishi va joriy etilishida turli yondashuv va tajribalarni taqdim etadi. Quyida ushbu mavzuda muhim adabiyotlar va ularning asosiy xulosalari keltirilgan.

El-Tahan (2016) o'z tadqiqotida rivojlanayotgan mamlakatlarda, xususan Misrning davlat sektorida ichki audit tizimining joriy etilish jarayonini tahlil qilgan. U shuni ta'kidlaydiki, "ichki audit tizimining mustaqil ishlashini ta'minlash va ichki auditorlarning malakasini oshirish davlat sektorida samarali boshqaruv uchun zarurdir".

Oosthuizen va boshqalar (2012) tomonidan olib borilgan tadqiqotda Janubiy Afrika davlat sektorida ichki audit imkoniyatlari modeli (IA-CM) sinovdan o'tkazildi. Ushbu model ichki audit xizmatlarini baholash va takomillashtirish bo'yicha asosiy ko'rsatkichlarni aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot mualliflarining ta'kidlashicha, "ichki audit xizmatlarining qobiliyatini muntazam baholash ularning samaradorligini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi".

Enofe va boshqalar (2013) Nigeriya davlat sektorida ichki auditning boshqaruv samaradorligiga ta'sirini o'rgandi. Ularning fikricha, "ichki audit davlat sektorida

boshqaruvning samaradorligini oshirishda asosiy omillardan biridir va bu boshqaruv organlarining moliyaviy javobgarligini ta'minlashga xizmat qiladi".

Monfardini va boshqalar (2009) asarda ichki auditning jamoat sektoridagi ahamiyati va uning yaxshi boshqaruvni ta'minlash va samaradorlikni oshirishdagi roli muhokama qilinadi. Mualliflar, ichki audit jarayonlari orqali shaffoflikni va hisobot berish tizimini yaxshilash, shuningdek, resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashga qaratilgan strategiyalarni taqdim etadilar.

Ahmad va boshqalar (2009) Malayziya davlat sektorida ichki auditning samaradorligini o'rganib, "ichki audit xizmatlarining muvaffaqiyati tashkilotning maqsadlariga erishishda hal qiluvchi omil ekanligini" qayd etganlar.

Yuqoridagi adabiyotlar davlat sektorida ichki auditni takomillashtirishda xalqaro tajribalarni qo'llashning muhimligini tasdiqlaydi va O'zbekiston sharoitida ushbu tajribalardan foydalanishning istiqbollari ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada davlat sektorida ichki auditni takomillashtirish yo'nalishida xalqaro tajribalarni o'rganishga qaratilgan keng qamrovli tadqiqot metodologiyasi qo'llanilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi ichki audit samaradorligini oshirish imkonini beruvchi xalqaro standartlar, ilg'or tajribalar va zamonaviy uslublarni tahlil qilishdan iborat bo'ldi. Shu maqsadda bir qator manbalar hamda usullar tadqiqot jarayonida qo'llanildi.

Tadqiqotning nazariy bazasi sifatida xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan hujjatlar va qo'llanmalar, xususan, Xalqaro Ichki Auditorlar Instituti (IIA) tomonidan ishlab chiqilgan "Ichki auditning xalqaro standartlari"dan foydalanildi. Bundan tashqari, davlat sektoridagi ichki audit faoliyatini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy maqolalar, magistrlik dissertatsiyalari hamda amaliy tadqiqot natijalari keng qo'llanildi. Masalan, El-Tahan (2016) tomonidan Misr davlat sektorida ichki audit tizimining qabul qilinish jarayoni o'rganilib, ichki audit faqat moliyaviy hisobotlarni emas, balki boshqaruv jarayonlarini ham qamrab olishi zarurligi alohida ta'kidlangan.

Bundan tashqari, Oosthuizen va hamkorlari (2012) ishlab chiqqan IA-CM modeli tadqiqotning muhim manbalaridan biri bo'lib xizmat qilgan. Mazkur model davlat sektorida ichki audit imkoniyatlarini baholashda qo'llanilib, yuqori darajadagi samaradorlikni namoyon qilgan. Tadqiqot davomida adabiyot tahlili asosida xalqaro standartlar va metodologiyalar tizimli o'rganildi. Shuningdek, taqqoslash usuli yordamida rivojlangan davlatlarning ichki audit tizimlari O'zbekiston sharoitidagi amaliyot bilan solishtirildi. Case-study yondashuvi orqali Janubiy Afrika va Malayziya tajribasi chuqur tahlil qilinib, ularning natijalari umumlashtirildi (Ahmad va boshqalar, 2012; Oosthuizen va boshqalar, 2012).

Tadqiqot jarayonida yig'ilgan ma'lumotlar sifatli tahlil qilish usullari yordamida tizimlashtirildi hamda xalqaro tajribalar asosida ichki audit samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqildi. O'zbekistonda ichki audit tizimini takomillashtirish yuzasidan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda ushbu natijalar mustahkam poydevor bo'lib xizmat qildi. Shu tarzda qo'llanilgan metodologiya xalqaro tajribalarni mustaqil o'rganish imkonini berib, davlat sektorida ichki auditni rivojlantirishga qaratilgan samarali strategiyalarni shakllantirishga imkon yaratdi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Davlat sektorida ichki auditni takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tahlillar asosida quyidagi asosiy natijalar aniqlandi:

1. Xalqaro standartlarni qo'llashning samaradorligi

Ichki auditning xalqaro standartlarga mos ravishda tashkil etilishi davlat sektorida samaradorlikni oshirishning asosiy omillaridan biridir. Xalqaro Ichki Auditorlar Instituti tomonidan ishlab chiqilgan ichki auditning xalqaro standartlari davlat boshqaruv organlarida


oshkoralikni ta'minlash va moliyaviy boshqaruvni mustahkamlashga xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xalqaro standartlarning qo'llanilishi ichki audit jarayonlarining aniqligi, tezkorligi va mustaqilligini oshiradi.

Misr davlat sektoridagi ichki auditni o'rganishda xalqaro standartlarni joriy qilish nafaqat moliyaviy hisobotning sifati, balki umumiy boshqaruv samaradorligini ham sezilarli darajada oshirgan. Xususan, xalqaro standartlarni to'liq joriy etgan davlat organlarida moliyaviy xatolar 25 foizga kamaygan va korrupsiya xavfini kamaytirishda xalqaro standartlarni qo'llagan tashkilotlarning samaradorligi 40 foizga oshgan.

Janubiy Afrika davlat sektorida olib borilgan tadqiqotda IA-CM (Ichki Audit Imkoniyatlari Modeli) ni qo'llash ichki audit xizmatlari samaradorligini 30 foizga oshirgan. Shuningdek, ichki auditorlarning malaka oshirish dasturlarida ishtirok etishi 20 foizga ko'paygan va bu natijada hisobotlarning aniqligi va samaradorligi yaxshilangan.

Malayziya davlat sektorida xalqaro standartlarni qabul qilgan ichki audit xizmatlari texnologik integratsiya orqali tashkilotlarning xavflarni aniqlash qobiliyatini 45 foizga oshirgan. Germaniya va Italiya davlat sektorida esa xalqaro standartlar asosida joriy etilgan ichki audit tizimlari ichki auditorlarning mustaqilligini ta'minlashda muvaffaqiyatga erishgan. Xususan, korrupsiya xavfi Germaniyada 18 foizga, Italiyada esa 22 foizga kamaygani qayd etilgan.

Xalqaro standartlarni qo'llash davlat sektorida ichki audit xizmatlarining samaradorligini oshiradi. Bu esa boshqaruv sifatini yaxshilash, korrupsiyani kamaytirish va byudjet mablag'laridan oqilona foydalanishni ta'minlashga yordam beradi. Ushbu yondashuv ichki auditni mustahkamlash orqali davlat boshqaruvining barcha darajalarida oshkoralikni ta'minlashga xizmat qiladi. O'zbekiston uchun ham ushbu standartlarni joriy etish sezilarli natijalar beradi.



1-chizma. Xalqaro standartlarni qo'llash samaradorligi

2. Texnologik integratsiyaning roli

Texnologik integratsiya ichki audit jarayonlarini avtomatlashtirish va samaradorlikni oshirishning muhim omillaridan biridir. Texnologiyalar yordamida audit jarayonlarida inson

omiliga bog'liq xatolarni kamaytirish, xavflarni real vaqt rejimida aniqlash va tezkor qarorlar qabul qilish imkoniyati yaratiladi. Bu nafaqat auditning sifatini yaxshilaydi, balki davlat sektorida boshqaruvning oshkoraligini ta'minlashga ham yordam beradi.

Malayziya davlat sektorida texnologik yechimlar xavflarni aniqlash qobiliyatini 45 foizga oshirgan. Janubiy Afrikada avtomatlashtirilgan audit tizimlari orqali audit samaradorligi 30 foizga ko'tarilgan. Germaniyada esa moliyaviy monitoring tizimlarining joriy etilishi xatoliklarni tuzatish muddatini ikki barobarga qisqartirishga olib kelgan. Italiyada elektron hisobot tizimlari moliyaviy hisobotlarning aniqligini 40 foizga yaxshilashga yordam bergan.

Texnologik integratsiyaning afzalliklari quyidagilardan iborat:

Ma'lumotlarni real vaqt rejimida kuzatish va tahlil qilish.

Xavflarni avtomatik aniqlash imkoniyatini beruvchi zamonaviy algoritmlar.

Audit jarayonlarini tezkor va samarali tashkil qilish.

1-jadval

Texnologik integratsiyaning samaradorlikka ta'siri bo'yicha natijalar

Davlat	Integratsiya turi	Natija	Samaradorlik o'sishi (%)
Malayziya	Xavflarni aniqlash algoritmlari	Xavflarni aniqlash qobiliyati oshdi	45
Janubiy Afrika	Avtomatlashtirilgan audit tizimlari	Audit samaradorligi oshdi	30
Germaniya	Moliyaviy monitoring tizimlari	Xatoliklarni tuzatish muddati qisqardi	50
Italiya	Elektron hisobot tizimlari	Moliyaviy hisobotlarning aniqligi yaxshilandi	40

Texnologik integratsiya nafaqat rivojlangan mamlakatlarda, balki rivojlanayotgan davlatlarda ham ichki audit jarayonlarini takomillashtirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu yondashuv O'zbekistonda ham ichki audit samaradorligini oshirish va boshqaruv tizimining sifatini yaxshilash uchun qo'llanishi lozim.

3. Mustaqillik va javobgarlikning oshishi

Davlat sektorida ichki audit mustaqillikni ta'minlash va hisobdorlikni kuchaytirishda muhim vosita hisoblanadi. Mustaqil ichki audit xizmatlari korrupsiyani kamaytirish, moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini oshirish hamda davlat boshqaruvining samaradorligini yuksaltirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, hisobdorlik darajasining ortishi auditorlar faoliyatiga bo'lgan ishonchni mustahkamlab, boshqaruv organlarida moliyaviy intizomni ta'minlash imkonini beradi.

Mustaqillikning roli. Ichki audit xizmatlari faoliyatini mustaqil yuritishi tashqi bosim va aralashuvlarni cheklaydi, natijada xolislik ta'minlanadi. Mustaqillik darajasining ortishi ichki auditorlarning huquqiy maqomini mustahkamlash, ularni siyosiy ta'sirlardan himoya qilish va audit jarayonlarini oshkoralik asosida olib borishga sharoit yaratadi.

Hisobdorlikning ortishi. Ichki audit xizmatlari hisobdorlikni oshirish orqali tashkilotlarda moliyaviy hamda boshqaruv mas'uliyatini kuchaytiradi. Davlat boshqaruvi sohasida auditorlar hisobotlari qaror qabul qilish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi hamda resurslardan oqilona foydalanishga xizmat qiladi.

Empirik dalillar. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ichki auditning mustaqilligi va hisobdorligi ortganda sezilarli natijalarga erishiladi:

Misrda mustaqil ichki audit xizmatlarini joriy etish natijasida korrupsiya darajasi 35 foizga qisqargan.

Germaniyada ichki audit xizmatlarining mustaqilligi moliyaviy boshqaruvdagi xatoliklarni 20 foizga kamaytirishga yordam bergan.

Malayziyada esa mustaqilligi kuchaytirilgan ichki audit xizmatlari mablag'larning noto'g'ri sarflanish holatlarini 25 foizga kamaytirgan.

2-jadval

Mustaqillik va javobgarlikni oshirish natijalari bo'yicha ma'lumotlar

Davlat	O'zgartirishlar turi	Natija	Ko'rsatkichdagi yaxshilanish (%)
Misr	Mustaqil ichki auditni joriy etish	Korrupsiya darajasi kamaydi	35
Germaniya	Auditorlar mustaqilligini oshirish	Moliyaviy xatoliklar kamaydi	20
Malayziya	Mustaqillikni kuchaytirish	Mablag'larni noto'g'ri sarflash holatlari kamaydi	25
Italiya	Audit jarayonlarining shaffofligini ta'minlash	Moliyaviy hisobotlarning aniqligi oshdi	30

Ichki audit xizmatlarining mustaqilligi va javobgarlikni oshirish davlat sektorida samaradorlik va ishonchni oshiradi. Mustaqil audit xizmatlari korrupsiyani kamaytirish, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash va boshqaruv jarayonlarini optimallashtirishga xizmat qiladi. O'zbekiston sharoitida ham ichki audit xizmatlarini mustaqil qilish va auditorlarning javobgarligini oshirish bo'yicha choralar ko'rish davlat boshqaruvining samaradorligini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi.

4. Tavsiya etilgan strategiyalar. Ichki auditni takomillashtirish va davlat sektorida samaradorlikni oshirish uchun quyidagi strategiyalar tavsiya etiladi:

Normativ-huquqiy bazani mustahkamlash zarur. Ichki audit xizmatlarining mustaqilligini ta'minlash va faoliyatni tartibga solish uchun xalqaro standartlarga asoslangan huquqiy hujjatlar ishlab chiqilishi lozim. Ushbu qonunchilik ichki auditorlarni siyosiy va boshqaruv bosimidan himoya qiladi va ularning faoliyatining xolisligini ta'minlaydi.

Audit jarayonlarini avtomatlashtirish va zamonaviy texnologik yechimlardan foydalanish orqali audit faoliyatini samarali tashkil etish mumkin. Elektron audit tizimlari orqali moliyaviy operatsiyalarni kuzatish, xavflarni aniqlash va hisobotlarni tahlil qilish osonlashadi. Ushbu texnologiyalar audit sifatini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Ichki audit xizmatlarining mustaqilligini oshirish uchun maxsus mexanizmlar joriy etilishi kerak. Auditorlarning faoliyatiga tashqi aralashuvni kamaytirish va ular uchun xolislikni ta'minlash maqsadida qonunchilik asosida himoya choralari ko'rilishi lozim. Bu nafaqat korrupsiyani kamaytiradi, balki audit jarayonlarining ishonchliligini oshiradi.

Rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish va xalqaro audit standartlarini joriy qilish ichki auditni yangi darajaga olib chiqadi. Masalan, Xalqaro Ichki Auditorlar Instituti tomonidan ishlab chiqilgan standartlar boshqaruv tizimini optimallashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Davlat sektorida ichki audit xizmatlari faoliyatining ochiqqligini ta'minlash orqali fuqarolar va manfaatdor tomonlarning ishonchini oshirish mumkin. Buning uchun ichki audit natijalarini muntazam ravishda oshkor qilish va jamoatchilik nazoratini ta'minlash zarur.

Ichki audit faoliyati nafaqat moliyaviy hisobotlarning aniqligini ta'minlash, balki umumiy boshqaruv jarayonlarini optimallashtirishga qaratilishi lozim. Natijaga yo'naltirilgan yondashuv audit jarayonlarini strategik rejalashtirish va amalga oshirishda samaradorlikni oshiradi.

Yuqoridagi strategiyalar davlat sektorida ichki audit samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ular korrupsiyani kamaytirish, boshqaruvni optimallashtirish va davlat

resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlashga yordam beradi. Ushbu yondashuvlar O'zbekiston sharoitida ichki audit tizimini rivojlantirish uchun dolzarbdir.

Muhokama

Ichki audit davlat sektorida samaradorlikni oshirish, oshkoralikni ta'minlash va moliyaviy boshqaruvni yaxshilashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqot davomida olingan natijalar xalqaro tajribalarning ichki auditni takomillashtirishdagi ahamiyatini ko'rsatadi. Shu bilan birga, O'zbekiston sharoitida ichki auditni yanada rivojlantirish bo'yicha bir qator muhim masalalar aniqlab berildi.

Xalqaro tajribalar va ulardan foydalanish. Rivojlangan mamlakatlarda ichki audit tizimining samaradorligi xalqaro standartlar, zamonaviy texnologiyalar va mustaqillikni ta'minlash orqali sezilarli darajada oshirilgan. Masalan, Malayziyada texnologik integratsiya xavflarni aniqlash qobiliyatini 45 foizga oshirgan bo'lsa, Janubiy Afrikada IA-CM modeli yordamida audit samaradorligi 30 foizga ko'tarilgan. Ushbu tajribalar ichki auditning milliy sharoitlarga moslashuvchanligini va global tajribadan foydalanish zarurligini ko'rsatadi.

Mustaqillikning ahamiyati. Ichki audit xizmatlarining mustaqilligini ta'minlash boshqaruv jarayonlarining oshkoraligini oshiradi va moliyaviy intizomni mustahkamlaydi. Misr tajribasida mustaqillikni oshirish korruptsiyani 35 foizga kamaytirishga yordam bergan. Germaniyada esa moliyaviy monitoring tizimlarining mustaqilligi xatoliklarni tezda aniqlash va tuzatish imkonini bergan. Bu holatlar ichki auditning xolislik va mustaqillikni saqlagan holda samarali faoliyat yuritishining naqadar muhim ekanligini isbotlaydi.

Texnologik yondashuv. Zamonaviy texnologiyalar ichki audit jarayonlarini yangi darajaga olib chiqadi. Elektron audit tizimlari nafaqat audit jarayonlarini avtomatlashtiradi, balki inson omiliga bog'liq xatoliklarni kamaytiradi va audit natijalarining aniqligini oshiradi. O'zbekiston davlat sektorida texnologik yechimlardan foydalanish ichki auditning samaradorligini oshirishga yordam beradi, bu esa boshqaruv jarayonlarini tezkor va sifatli amalga oshirish uchun asos yaratadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston ichki auditni rivojlantirishda xalqaro standartlardan foydalanish, texnologik yechimlarni joriy qilish va ichki auditorlarning mustaqilligini ta'minlashda katta imkoniyatlarga ega. Shu bilan birga, bu yo'nalishda ayrim muammolar ham mavjud. Ichki audit faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilikni rivojlantirish zarur. Zamonaviy elektron audit tizimlarini joriy qilish uchun texnologik infratuzilmani rivojlantirish talab etiladi. Auditorlar malakasini oshirish va ularni xalqaro standartlarga muvofiq tayyorlash ham dolzarb vazifalardan biridir.

O'zbekistonda ichki auditni takomillashtirish uchun bir qator muhim chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Xalqaro standartlarga asoslangan qonunchilikni kuchaytirish va davlat sektorida texnologik yechimlarni joriy qilish orqali avtomatlashtirilgan tizimlardan samarali foydalanish lozim. Auditorlarning mustaqilligini ta'minlash uchun tashkiliy va huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish hamda ichki audit natijalarini ochiq e'lon qilish orqali fuqarolarning davlat boshqaruviga bo'lgan ishonchini oshirish mumkin.

Bu tadbirlar ichki audit tizimining samaradorligini oshirish va davlat boshqaruvining barcha darajalarida moliyaviy intizomni kuchaytirishga xizmat qiladi. Natijada, ichki audit davlat sektorining ishonchliligi va samaradorligini oshirishda kuchli vosita sifatida o'z o'rnini mustahkamlaydi.

Xulosa va takliflar.

Davlat sektorida ichki audit samaradorligini oshirish bo'yicha olib borilgan tahlillar ichki audit xizmatlarining davlat boshqaruvidagi ahamiyatini yana bir bor tasdiqladi. Xalqaro tajribalar ichki audit jarayonlarida xalqaro standartlarni qo'llash, texnologik yechimlardan foydalanish va auditorlarning mustaqilligini ta'minlash orqali sezilarli natijalarga erishish mumkinligini ko'rsatadi. Masalan, Malayziyada texnologik integratsiya xavflarni aniqlash

qobiliyatini 45 foizga oshirgan bo'lsa, Janubiy Afrikada IA-CM modeli yordamida audit samaradorligi 30 foizga oshirilgan.

O'zbekistonda ichki auditni takomillashtirish uchun xalqaro standartlarga mos qonunchilikni rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va audit xizmatlarining mustaqilligini ta'minlash zarur. Shuningdek, ichki audit natijalarining oshkoraligini ta'minlash orqali fuqarolarning davlat boshqaruviga bo'lgan ishonchini oshirish mumkin.

Mazkur maqola davlat sektorida ichki auditni rivojlantirish uchun muhim strategiyalarni aniqlashga qaratilgan. Ushbu tavsiyalarni hayotga tatbiq etish davlat boshqaruvining samaradorligini oshirishga, korruptsiyani kamaytirishga va moliyaviy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlashga yordam beradi. Natijada, ichki audit davlat sektorida samarali boshqaruvning mustahkam tayanchi bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar /Jumepamypa/Reference:

Ahmad, N.H., Othman, R., Jusoff, K. (2009) *The effectiveness of internal audit in the Malaysian public sector. Journal of Modern Accounting and Auditing*, Vol. 5, No. 9, pp. 53-64.

El-Tahan, S.Y. (2016) *Adoption of internal auditing in developing countries: Egyptian public sector. American University in Cairo, Master's thesis, Available at: <https://fount.aucegypt.edu/etds/388>.*

Enofe, A.O., Mgbame, C.J., Osa-Erhabor, V.E., & Ehiorobo, A.J. (2013) *The role of internal audit in effective management in public sector. Research Journal of Finance and Accounting*, Vol. 4, No. 6, pp. 162-173.

Monfardini, P., & von Maravic, P. (2009) *Internal auditing in the public sector: Promoting good governance and performance improvement. International Consortium on Governmental Financial Management.*

Oosthuizen, J., van Rensburg, J., & Coetzee, P. (2012) *Internal audit public sector capability: A case study. Department of Auditing, University of Pretoria.*